

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**YUNUSOVA RA‘NO G‘AYBULLAYEVNA**

**“TIBBIY TA‘LIMDA BIOFIZIKA FANINI LOYIHALASH ASOSIDA  
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH”**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Pedagogika fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya  
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по  
педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on  
pedagogical sciences**

**Yunusova Ra'no G'aybullayevna**

Tibbiy ta'limda biofizika fanini loyihalash asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish ..... 3

**Юнусова Рано Гайбуллаевна**

Совершенствование методики преподавания дисциплины "Биофизика" на основе проектирования в медицинском образовании..... 23

**Yunusova Rano Gaybullayevna**

Improvement of the methodology of teaching the discipline "Biophysics" based on designing in medical education ..... 45

**E'lon qilingan ishlar ro'uxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 49

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI  
BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI**

**YUNUSOVA RA‘NO G‘AYBULLAYEVNA**

**“TIBBIY TA‘LIMDA BIOFIZIKA FANINI LOYIHALASH ASOSIDA  
O‘QITISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH”**

**13.00.02 – Ta‘lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (Pedagogika fanlari)**

**PEDAGOGIKA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Farg‘ona – 2025**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/Ped5282 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Doktorlik dissertatsiyasi Buxoro davlat tibbiyot institutida bajarilgan.  
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.fjsti.uz) va «ZiyoNet» Axborot ta’lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Olimov Shirinboy Sharofovich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**Imanaxunova Iroda Xuseynovna**  
pedagogika fanlari doktori, dotsent  
**Jo'rayev Xusniddin Oltinboyevich**  
pedagogika fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Andijon davlat tibbiyot instituti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/02.07.2024.Tib.122.02-raqamli Ilmiy kengash asosida tuzilgan bir martalik ilmiy kengashning 2025 yil “\_\_\_” \_\_\_soatdagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_ raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 150100, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2a-uy. Tel.: +998(95) 202-23-45; faks: +998(95) 202-23-45; e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2025 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_-raqamli reestr bayonnomasi).

**F.Y.Yuldashev**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, t.f.d., dotsent

**M.T.Rasulova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi t.f.d., dotsent

**M.R.Kadirova**

Ilmiy darajalar beruvchi bir martalik Ilmiy kengash qoshidagi Ilmiy seminar raisi, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

## **KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)**

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Jahon fizika ta'limida biofizikaga oid ilmiy tadqiqotlarni olib borish va unda organizm a'zo va to'qimalarining faoliyati asosida yotuvchi umumiy fizikaviy va biofizikaviy qonuniyatlarni o'rganish, organizm to'qimalari va suyuqliklarining mexanik, bioelektrik va optik xossalari o'rganish, ularning fiziologik holati va anatomik tuzilishida tarkib va tahlil usullarining tibbiyotda tobora keng qo'llanilishi sababli, ular haqidagi fundamental nazariy tushunchalarni yanada rivojlantirish va talabalarga sifatli ta'lim berishning loyihalash usullarini aniqlashda, biofizika ta'lim-tarbiya jarayonidagi metodik muammolarni hal qilishda axborot texnologiyalari sohasidagi yangicha yondashuvlar va metodik tizimni takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

Dunyoda biofizika faniga oid kompetensiyalarni rivojlantirish, fanni o'qitishda loyihalash ta'lim hamda axborot texnologiyalari vositasida tizimli o'qitish metodikasini takomillashtirish, talabalarni tibbiy yo'nalishdagi bilimlarini oshirish bilan ularning biofizikaga bo'lgan qiziqishini rivojlantirishni nazarda tutgan tadqiqotlar olib borilmoqda. Mazkur tadqiqotlar biofizikadan turli masalalarni tanlash va yechish asosida ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlarini aniqlash, shuningdek, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani loyihalash texnologiyalari asosida o'qitishning ilmiy- nazariy hamda uslubiy asos vazifasini bajarmoqda.

Mamlakatimizni modernizatsiya qilish, ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan barqaror rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirish, inson kapitalini mehnat bozori talablari asosida takomillashtirish, tibbiyot sohasida sog'lom raqobat muhitini shakllantirish, uning jozibadorligini oshirish, jahon miqyosidagi raqobatbardoshligini ta'minlash, ta'lim jarayonini axborotlashtirish, o'quv-uslubiy, ilmiy ta'minotini rivojlantirishga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim muassasalarida biofizikani loyihalash texnologiyalari asosida o'qitish imkoniyatlarini oshiradi. Jumladan, Prezidentimizning 2021 yil 19 martdagi PQ-5032-son "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarorida: "Oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitishning integrativ printsiplarini joriy etish, yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning biofizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish; ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish metodlarini, shu jumladan AKTni keng joriy qilish" asosiy maqsad va vazifalardan biri etib belgilandi. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida yuqori malakali kadrlarni tayyorlashda ta'lim jarayoni samaradorligini oshirish, biofizikani loyihalash texnologiyalari asosida o'qitishni rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11 sentyabrdagi "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida" PF-158-son, 2022-yil 28-

yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni, 2019-yil 8-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta‘lim tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-4947-son, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 5-maydagi PQ-2956-son “O‘zbekiston Respublikasida tibbiy ta‘lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2018-yil 5-iyundagi “Oliy ta‘lim muassasalarida ta‘lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3775-son, 2020-yil 27-fevraldagi “Pedagogik ta‘lim sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son qarorlarida ta‘lim, ilm-fan va ishlab chiqarish uyg‘unligini ta‘minlash orqali ta‘lim sifatini yaxshilash, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy–huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustivor yo‘nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustivor yo‘nalishi doirsida bajarilgan.

**Muammoning o‘rganilganlik darajasi.** Fizika fanini o‘qitishda pedagogik texnologiyalarini tatbiq etish masalalari bo‘yicha E.B.Xujanov, S.Qaxxorov, M.Qurbonov, J.Nurmatov, Sh.O.Toshpo‘latova, A.M.Xudoyberganov, S.X.Umarov, A.K.Jamolov, M.M.Mirinoyatov, K.A.Tursunmetov, Sh.M.Kamolxo‘jayev, M.R.Tilavov, M.F.Ziyayeva, D.D.Sharipova, M.F.Ziyayeva, G.YE. Karlibayeva, V.L.Larin, Y.P.Mixailchenko, R.M. Abdulov, I.V.Robert, G.V.Yerofeyeva, ta‘limda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo‘llash nazariyasi va metodikasi masalalarining afzalliklari va imkoniyatlari borasida mamlakatimizda B.M.Mirzaxmedov, A.A.Abduqodirov Sh.O. Toshpo‘latova, N.N.Azixodjayeva, R.Ishmuamedov, U.Sh.Begimqulov, M.I.Daminov, Sh.M.Sodiqova, A.K.Jamolov, mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida A.I.Bugayev, I.A.Zaxarkin, O.V.Mirzabekova, G.V. Yerofeyeva, N.N. Gomulina kabi olimlar hamda tadqiqotchilar o‘zlarining ilmiy tadqiqotlarida zamonaviy axborot texnologiyalarini o‘quv jarayoniga joriy etish muammolarini o‘rganishgan hamda amaliyotga joriy etishgan.

Xorijiy olimlardan Andreas Döpp, Christoph Eberle, Sunny Howard, Faran Irshad, Jinpu Lin, Matthew Streeterlarning tadqiqot ishlarida biofizikani fanlararo aloqadorlik asosida o‘qitish, tibbiyot oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun tibbiy va biologik biofizikani o‘rganish uchun tavsiya etilgan darsliklarni tahlil qilish A.N.Remizov, N.M.Liventseva, E.V.Kortukov, V.S.Voevodskiy, Yu.K.Pavlovning

tadqiqotlarida o'rganilgan. Ammo, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani loyihalash texnologiyalari asosida o'qitish muammosi yetarli tadqiq qilinmagan. Bu esa, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani axborot texnologiyalardan foydalanib, loyihalash asosida o'qitishni takomillashtirish lozimligini taqozo etadi.

**Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universiteti ilmiy tadqiqot ishlari rejasining OT-F1-002 raqamli "Yoshlarda milliy g'oya va mafkuraviy immunitetni shakllantirishning psixologik mexanizmlari" (2018-2022 yy.) fundamental loyihasi doirasida amalga oshirilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani loyihalash texnologiyalari asosida o'qitish jarayonini takomillashtirish metodikasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitish muammolarini nazariy jihatdan o'rganish va amaldagi holatini tahlil qilish;

talabalarda biofizikani o'qitish metodikasini loyihalash texnologiyalari asosida takomillashtirish orqali fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish modelini ishlab chiqish va turli metodlarni o'qituvchilarni algoritmik munosabatda kiritish asosida aniqlashtirish;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishda mutaxassislik fanlar bilan bog'liq mavzular kesimida axborot texnologiyalarni loyihalash asosida qo'llash metodikasini takomillashtirish;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishning o'quv - metodik ta'minotini yaratish va tajriba - sinov ishlarini o'tkazish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqot obyekti** sifatida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitish metodikasini loyihalash texnologiyalari asosida takomillashtirish jarayoni belgilanib, tajriba-sinov ishlariga Buxoro davlat tibbiyot instituti, Samarqand davlat tibbiyot universiteti, Toshkent davlat tibbiyot akademiyasining 653 nafardan ortiq talabalari jalb etildi.

**Tadqiqot predmetini** tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini loyihalash texnologiyalari asosida o'qitish metodikasini takomillashtirish mazmuni, shakl, metod va vositalari tashkil qiladi.

**Tadqiqot usullari.** Tadqiqotning maqsadi va vazifalariga muvofiq keluvchi ilmiy–metodik manbalarni qiyosiy–tanqidiy o'rganish, ilmiy tadqiqot va ilmiy–pedagogik adabiyotlar va me'yoriy hujjatlar tahlili, o'quv jarayonini kuzatish, suhbat, so'rovnomalar, testlar o'tkazish, reyting, pedagogik tajriba-sinov natijalariga matematik statistik metodlaridan foydalanib ishlov berish va umumlashtirish.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari fundamental, kasbiy, amaliy va axborotlilik

tamoyillarga asoslangan zamonaviy paradigmalarning didaktik imkoniyatlari kengaytirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari (amaliyotga yo'naltirilgan, uzluksiz ta'lim, amaliy va klinik ko'nikmalar, shaxsiy yondashuv)ni hisobga olgan holda interaktiv darslar, o'rganish jarayonini gamifikatsiya qilish, masofaviy o'qitish metodlari va zamonaviy simulyatorlardan foydalanib, biofizikani o'qitishning tuzilmaviy didaktik modeli mazmunli, tashkiliy, jarayonli, mezon va natijaviy bloklarining uzviyligi asosida takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishda mutaxassislik fanlari bilan bog'liq mavzular kesimida axborotli, mobil ilova, sun'iy intellekt, bulutli, multimediali hamda loyihaviy metodlarni qo'llash orqali aniqlashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishda kontent, avtomatik grafik, diagrammalar yaratish, loyihaviy kabi vizual topshiriqlar, interaktiv o'quv-texnik mobil texnologiyalar va dasturiy vositalarni qo'llash imkonini beruvchi produktiv, qisman izlanishli, integral baholash mezonlari asosida takomillashtirilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarida biofizikani o'qitish metodikasini loyihalash texnologiyalari asosida takomillashtirish bilan bog'liq muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantirishni ta'minlash maqsadida:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanining mavzularini axborot texnologiyalaridan foydalanib, loyihalash asosida o'qitish metodlari takomillashtirilgan hamda talabalarining amaliy faoliyatini rivojlanishiga yordam beruvchi didaktik topshiriqlar ishlab chiqilgan;

biofizika fanini o'qitishda ta'lim samaradorligini ta'minlovchi elektron o'quv-metodik ta'minotlar mazmuni talabalarining bilish faoliyatiga ta'sir etishini loyihalash asosida amaliyotga tadbiq etilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining biofizika fani o'quv dasturi asosida "Tibbiy va biologik fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari to'plami" nomli o'quv qo'llanma, "Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishning loyihalash texnologiyalari" nomli elektron o'quv-metodik qo'llanmalari ishlab chiqilgan. "Biofizika fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar" deb nomlangan metodik qo'llanmada amaliyotda qo'llaniladigan biofizikaviy qurilmalarning ishlash jarayonining fizik-texnik asoslarini tushuntirishda dasturiy vositalardan foydalanish metodikalari ishlab chiqilgan va amaliyotga tatbiq etilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** tadqiqot natijalarining respublika va xalqaro miqiyosdagi ilmiy anjumanlari to'plami, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi ro'yxatidagi maxsus jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, ishlab chiqilgan elektron o'quv-metodik ta'minotlarning o'quv amaliyotiga joriy qilinganligi, ishda qo'llanilgan yondashuvlar va usullar, uning doirasida foydalanilgan nazariy yondashuvlar

rasmiy manbalardan olinganligi, pedagogik tajriba-sinov ishlarining tahlili va samaradorligi matematik-statistik tahlil metodlari yordamida qayta ishlanganligi, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati taklif etilayotgan tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishda mutaxassislik fanlari bilan bog'liq mavzular kesimida axborot texnologiyalarni loyihalash asosida qo'llash metodikasi talabalarning biofizikadan bilim olishini faollashtirishga qaratilgan bo'lib, loyihalash va zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etish hamda ulardan foydalanish metodikasining takomillashtirilganligi bilan izohlanadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati taklif etilgan biofizika fanini o'qitishning o'quv - metodik ta'minoti o'qitish samaradorligini oshirish, elektron o'quv-metodik qo'llanmalar yaratish va ulardan foydalanish metodlarini ishlab chiqish, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning biofizik tafakkurini rivojlantirish va ularning biofizik tajribalarni amaliyotda qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitish metodikasini loyihalash texnologiyalari asosida takomillashtirish bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishning ijtimoiy-pedagogik shart-sharoitlari fundamental, kasbiy, amaliy va axborotlilik tamoyillarga asoslangan zamonaviy paradigmalarning didaktik imkoniyatlarini aniqlashtirishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar va nazariy ma'lumotlar "Tibbiy va biologik fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari to'plami" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil "29" fevral 02-28/4313-son ma'lumotnomasi). Natijada, tibbiyot yo'nalishidagi oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitish bo'yicha metodik ta'minotni amaliy integratsiyalash orqali o'quv jarayoni takomillashtirilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarining o'ziga xos xususiyatlari (amaliyotga yo'naltirilgan, uzluksiz ta'lim, amaliy va klinik ko'nikmalar, shaxsiy yondashuv)ni hisobga olgan holda interaktiv darslar, o'rganish jarayonini gamifikatsiya qilish, masofaviy o'qitish metodlari va zamonaviy simulyatorlardan foydalanib, biofizikani o'qitishning tuzilmaviy didaktik modeli asosida talabalarda individuallik, tashabbuskorlik, kreativlik, mustaqil fikrlash sifatlarini rivojlantirish "Bingo" o'yini, "To'rt pog'ona", "Loyiha" ta'lim metodlari orqali takomillashtirishga oid nazariy g'oyalar "Tibbiy va biologik biofizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlari to'plami" nomli o'quv qo'llanma mazmuniga singdirilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil "29" fevral 02-28/4313-son ma'lumotnomasi). Natijada, yuqori malakali kadrlar tayyorlashning o'quv-metodik ta'minotini takomillashtirishga xizmat qilgan;

tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitishda kontent, avtomatik grafik, diagrammalar yaratish, loyihaviy kabi vizual topshiriqlar, interaktiv o'quv-texnik mobil texnologiyalar va dasturiy vositalarni qo'llash metodikasiga oid takliflardan "Matematik fizikaning holatlar to'plami cheksiz bo'lgan modellari termodinamikasi" nomli loyiha doirasida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2024 yil "29" fevral 02-28/4313-son ma'lumotnomasi). Natijada, mazkur loyiha tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitish sifatini va talabalarning motivatsion faoliyatini oshirishga xizmat qilgan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 11 ta respublika anjumanlarida muhokama qilingan va ma'qullangan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 21 ta ilmiy-uslubiy ishlar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari bo'yicha asosiy ilmiy natijalarni chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 20 ta maqola, shulardan, 9 ta respublika va 11 ta xorijiy jurnallarda chop etilgan, O'zbekiston Respublikasi intellektual mulk agentligidan elektron ta'lim resurslari bo'yicha 1 ta guvohnoma olingan.

**Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi.** Dissertatsiya ishi 127 sahifada yozilgan bo'lib, kirish, uchta bob, xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

**Kirish** qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'yekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi hamda amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani loyihalash asosida o'qitishning ilmiy-nazariy asoslari**" deb nomlangan birinchi bobida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonining samaradorligini oshirish – pedagogik muammo sifatida tavsiflanib, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishning mavjud holati tahlil qilingan. Shuningdek, biofizika fanini o'qitishdagi muammolar va ularning yechimlari belgilangan.

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish, insonlar salomatligini saqlash borasida faol, foydali ishlarni amalga oshirish, xalqimizning tibbiy madaniyatini yuksaltirish eng muhim dolzarb masaladir. Tibbiyot ilm-faniga ham moddiy, ham ma'naviy e'tiborni kuchaytirish,

fundamental va ilmiy-loyihalash tadqiqotlar natijalarini hayotga joriy etish orqali o'qitish jarayoni samaradorligiga erishiladi.

Ma'lumki, tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida o'qitish jarayonining samaradorligi jamiyat kelajagining mustahkam poydevoridir, bu borada avvalo, yoshlarning tibbiy bilim, ko'nikma va malakaga ega bo'lish zaruriyatini anglashi va unga qat'iyat, o'ziga ishonch va mas'uliyat bilan yondashib, tibbiy bilimlarni o'zlashtirishga jiddiy e'tibor berishi, tibbiy faoliyatning nazariyasi va amaliyoti bilan chuqurroq tanishishi, bilimlarni hayot va amaliyot bilan bog'lay olishi zarur.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning 2021 yil 19 martdagi "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy-tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5032-son qarorida: "Oliy ta'lim muassasalarida fizika o'qitishning integrativ printsiplarini joriy etish, yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning biofizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish; ta'lim jarayoniga zamonaviy o'qitish metodlarini, shu jumladan AKTni keng joriy qilish" asosiy vazifalardan biri etib belgilandi.

Tibbiyot oliy o'quv yurtlarida biofizika fanini o'qitishdan asosiy maqsad bo'lajak shifokorlarga inson organizmida fiziologik jarayonlar qanday sodir bo'lishini, fizik qonuniyat va hodisalardan tibbiyotda, masalan, diagnostika va terapiyadan optimal foydalanishni o'rgatishdan iborat. Shuning uchun tibbiyot fanlari talabalar kasbiy tayyorgarlik sohasida tibbiy texnologiya va amaliyot xususiyatlarini o'rganishning yangi usullarini izlashlari talab etiladi. Zamonaviy tibbiyot oliy o'quv yurtlarida kasbiy ta'limning mazmuni va maqsadi o'qituvchi ishining natijalarini, shuningdek, ishning tabiati va mazmunini, ularni amalga oshirish usullarini namoyish etishdan iborat.

Biofizika fani o'qituvchisi loyihalash ta'lim texnologiyalari asosida mashg'ulotlarni tashkil etishga o'rgansa, ularning bu faoliyatga bo'lgan faolligi oshadi, fikrlashi, ijodiy tafakkuri kuchayadi, metodik tayyorgarligi shakllanadi, muammolar yechimining eng maqbulini tanlash faoliyati mustahkamlanadi, ayniqsa, bilim olishga bo'lgan intilishi yanada oshadi. Chunki loyihalash – boshlang'ich ma'lumotlarga asoslanib, kutiladigan natijani taxmin qilish, bashoratlash, rejalashtirish orqali faoliyat yoki jarayon mazmunini ishlab chiqishga qaratilgan amaliy harakat hisoblanadi. Loyihalash "g'oya - maqsad - kutiladigan natija - taxmin qilish - bashoratlash - rejalashtirish" tizimiga asoslanadi. Talabalarda loyihlash texnologiyasi asosida o'qitish jarayonida olgan bilimlaridan, bilish jarayonida xizmat qiladigan amaliy maslahatlardan foydalanishsa, shuningdek, mustaqil tahliliy fikr yuritishga o'rganadilar, ularda yangi g'oyalar topish, ijodiy fikrlashga, to'g'ri strategiya tanlash, aniq masala-muammolarni yechish ko'nikmasi hosil bo'ladi.

Tibbiyot yo'nalishida biofizika fanini o'qitishda interaktiv ta'lim texnologiyalari keng qo'llaniladi, jumladan o'qitishning o'ziga xos xususiyatlarini

hisobga olgan holda ushbu texnologiya o'quv materialini idrok qilishni soddalashtirishga, talabalarning o'quv va kasbiy faoliyatida fanlarning aksini ko'rishga imkon beradi. Fikrimizcha, tibbiyot yo'nalishida biofizika fanini o'qitishning metodik asoslari sifatida quyidagilar qabul qilinishi lozim:

- shaxsga yo'naltirilgan ta'lim nazariyasi, shuningdek, shaxsni rivojlantirish, aloqa, uning ijtimoiylashuvining barcha bosqichlarida shaxsiyat shakllanishining ko'p faktorli tabiati to'g'risidagi g'oyalari;

- oliy ta'lim didaktikasining qonuniyatlari va tamoyillari;

- izchillik, tizimlilik, individual, yaxlitlilik, atrof-muhit, faollik va boshqa ustuvor tamoyillari;

- tibbiy profilni o'z ichiga olgan ta'lim muassasalarida ta'lim muhitini qurishga bag'ishlangan metodik ishlar;

- o'quv materialini kengaytirish sharoitida ta'limni insonparvarlashtirish g'oyalari;

- biofizika fanini o'qitish nazariyasi va metodikasi sohasidagi tadqiqotlar.

O'quv jarayonida talabalarning qiziqishlari va xususiyatlarini hisobga olishga imkon beradigan uchta o'zaro bog'liq elementlar bo'lishi lozim:

tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalari uchun biofizika fanini o'qitishni tashkil etish markazida tayyorgarlik-aniqlik, protsessual-mazmunli va reflektiv-baholash bosqichlari turishi maqsadga muvofiqdir.

Nazariy tahlil va kuzatishlar davomida biofizika fanini o'qitishning umumiy qonuniyatlarini aniqladik:

o'quv materiallari va boshqa bilim sohalaridagi amaliy jihatlarning tarkibi, masalan, texnologik yo'naltirilgan tarkib (tibbiy texnika, jarayonlar va hodisalarning kompyuter texnikasi nuqtai nazaridan ishlash printsiplari, biosistemalarni matematik modellashtirish va boshqalar);

talabalar va o'qituvchi o'rtasida, ham auditoriyada, ham auditoriyadan tashqarida teng hamkorlik (ushbu hamkorlik ko'pincha talabalarning tadqiqot doiralari darajasida ikkalasining ham cheklangan ishtirokida ro'y beradi);

o'quv jarayonida orqada qolayotgan va ularga biofizika fani bo'yicha qiyin savollarni o'rganishda yordam beradigan talabalarga nisbatan bag'rikenglikning namoyon bo'lishi;

- o'quv mashg'ulotlarida jamoaviy, guruhli va teng darajada individual shakllar;

- talabalarning shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim faoliyati turlari.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishda eng muhim didaktik tamoyillar quyidagilardan iborat:

- o'quv jarayonida talabalarning qiziqishlarini maqsadga muvofiq hisobga olish, ma'lum bir fanni o'qitishda ularning xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ta'lim faoliyatini amalga oshirish;

- talaba individualligi, uning shaxsiyatining imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlarni ta'minlash.

Biofizika fanini o'qitishda an'anaviy uslublar bilan birga ularni zamonaviy o'qitish texnologiyalari va dasturlashtirilgan pedagogik vositalar bilan boyitib, faollashtirish, virtual laboratoriya ishlarini yaratish, ulardan unumli foydalanish metodlari bilan biofizika ta'limi mazmunini takomillashtirish imkoniyati yaratiladi.

Dissertatsiyaning **“Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishni takomillashtirish metodikasi”** nomli ikkinchi bobida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishni takomillashtirish mazmuni, fanni o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish metodikasi ochib berilgan. Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishni takomillashtirishning zamonaviy shakl, metod va vositalari izohlangan.

Bugungi kunda tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishda quyidagilar uning asosiy vazifalari etib belgilandi:

- ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitish sifatini oshirish, darsliklar va o'quv qo'llanmalarini takomillashtirish;

- biofizika fani bo'yicha kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish;

- ta'lim jarayoniga axborot – kommunikatsiya texnologiyalarni keng joriy qilish;

- yangi va ta'lim bozorida talab yuqori bo'lgan mutaxassisliklar bo'yicha kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish orqali yoshlarning biofizika ta'limi bilan qamrab olish darajasini oshirish;

- biofizika sohasidagi ilmiy tadqiqotlarning ishlab chiqarish bilan uzviy bog'liqligini ta'minlash.

Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida quyidagi muammolarni hal qilishni talab etiladi:

- zamonaviy jamiyatning nostandart vaziyatlarda kasbiy muammolarni hal qilishga tibbiyot mutaxassislari bo'lgan ehtiyoji va shifokorlarning kasbiy kompetensiyalarining yetarli darajada rivojlanmaganligi;

- tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini o'qitishni davlat ta'lim standartiga muvofiq amalga oshirish zarurati va mavjud usullardan foydalangan holda ushbu ta'limni yetarli darajada ta'minlanmaganligi;

- tibbiy ta'limda fizika va biofizika fanlarini o'qitish metodikasi bo'yicha yetarlicha tadqiqotlar olib borilmaganligi.

Oliy ta'lim muassasalarida biofizikani samarali o'qitishni amalga oshirish uchun biz quyidagilarni eng muvaffaqiyatli deb hisoblaymiz:

- haqiqiy ta'lim jarayonini aniq belgilangan yakuniy natijalarga izchil yo'naltirishni nazarda tutadigan texnologik tamoyil;

- har bir talabaning kreativ salohiyatini rivojlantirish uchun qulay imkoniyatlar yaratilishi kerak bo'lgan insonparvarlik tamoyili, barcha talabalarga

o‘zlarining shaxsiy qobiliyatlari uchun mos bo‘lgan shakllar, usullar, o‘qitish va nazorat vositalarini muqobil tanlash erkinligini berish;

- kibernetik tamoyil, oliy ta‘lim muassasalarida talabani tayyorlashning oraliq va yakuniy natijalariga o‘zini o‘zi boshqarishni ta‘minlashni nazarda tutadi.

Biofizika o‘qitishni hozirgi holatini o‘rganish uchun kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta‘lim mazmuni tayanch va fanga oid kompetensiyalarni shakllantirish, talabalar kompetentligini rivojlantirish orqali kasbga tayyorlashni nazarda tutadi. Bunda darsda qo‘llaniladigan texnologiyalar asosiy omillardan hisoblanadi. Ta‘lim texnologiyalari talabalar kompetentligini rivojlantirishda bir qator imkoniyatlarga ega. Dars turidan qat‘iy nazar undagi muammo bu talabalarni ijodiy fikrlashga, faollashtirishga, kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo‘lishi lozim. Talabalarni faollashtirishga asoslangan texnologiyalar ham turlicha bo‘lib:

1) o‘yin;

2) muammoli ta‘lim;

3) loyihalash;

4) trening yoki interfaol ta‘lim texnologiyalari dars maqsadi va ta‘lim mazmunidan kelib chiqqan holda tanlanadi. Masalan, muammoli ta‘lim jarayonida o‘qituvchi rahbarligida ma‘lum o‘quv muammosi qo‘yilib, talabalarga uni yechish vazifasi beriladi. Bunda talabalarning ijtimoiy faolligi, o‘zaro muloqotga kirishishi va muammoning yechimini qidirishda matematik savodxonlik, fan texnika yutuqlaridan foydalanish kompetensiyalari shakllanadi. “STEAM”, “Blits so‘rov”, “BBB”, “3x3”, “Elektr zanjirlar”, “Formulalarni o‘rganish”, “Fizik olimlar ilmiy tadqiqotlarini o‘rganish” kabilardan foydalanildi.

Talabalarni faollashtirish uchun individual va tabaqalashgan yondashuvdan foydalanamiz. Dars davomida talabalarda tabaqalashtirilgan yondashish deganda, mustaqil o‘quv faoliyatini boshqarishning shunday tizimi tushuniladiki, bunda talabalarning individual xususiyatlari hisobga olinadi.

Tabaqalashtirishning asosiy tamoyili sifatida o‘quv materialini to‘xtovsiz soddalashtirish emas, balki o‘qituvchi tomonidan talabalarga tabaqalashgan yordam bo‘lishi lozim. O‘quv amaliyotida tabaqalashgan yondashuvni qo‘llash uchun “maslahat-kartochkalari”dan foydalanilmoqda, ularning bittasida masalaning yechimi berilgan bo‘lsa, boshqasida masalaning chizma yoki jadvali yo‘llanma sifatida beriladi. Boshqa bir holda esa, andoza sifatida berilgan masalaga o‘xshash masalaning yechimi beriladi. Natijada, barcha talabalar amaliy mashg‘ulotda bitta masalani yechishadi, ammo ularga ko‘rsatilgan yo‘llanma va maslahatlar bir-biridan farq qiladi. Guruhdagi kuchliroq talabalar uchun qiyinroq topshiriqlar taklif qilinadi. Bunday topshiriqlar darsliklarga kiritilgan bo‘lishi yoki o‘qituvchi tomonidan oldindan tayyorlab qo‘yilgan bo‘lishi shart. Buning natijasida biofizika darslari quyidagicha takomillashtiriladi (1-jadval).

## Biofizika darslarini takomillashtirish tizimi

Bosqichlari	Asosiy vazifalari	Natija
Biofizika tushunchalari nazariy, umumlashtirish, xulosa chiqarish	Biofizika o'qitish jarayonida o'qituvchi, talaba faoliyatini tahlil qilishda tadqiqotchi, tabaqalashtirilgan va individual ishlash qobiliyatini moslashtirish. biofizika kursi materialini tizimlashtirish. Asbob-uskunalar bilan ishlash qobiliyatini, tajriba, laboratoriya o'tkazish mahoratini shakllantirish.	Biofizika fanini o'qitish jarayonida o'qituvchi, talaba faoliyati hamkorligi yo'lga qo'yiladi. Talabalarda asbob-uskunalar bilan ishlash qobiliyati, tajriba, laboratoriya o'tkazish mahorati shakllanadi.
Amaliy ishlarni tashkil etish	Biofizika o'qitishni rejalashtirish, uni tahlil etish, biofizikani o'rgatish, talabalarni bilish faoliyatini tashkillashtirishning shakl, metod, vositalari va bilim olish qobiliyatini, tadqiqotchilik ko'nikmalarini rivojlantirish, tajribalar o'tkazish va masalalar yecha olish malakasini shakllantirish.	Biofizikani o'rgatish, talabalarni bilish faoliyatini tashkillashtirishning shakl, metod va vositalari aniqlashtiriladi. Talabalarda bilim olish qobiliyati, tadqiqotchilik ko'nikmalari rivojlanadi.
Biofizika qonunlarini tushunish va xulosa chiqarish	Biofizika qonunlarini o'rgatish va o'z bilimini amaliyotga qo'llashga tayyorlash	Talabalarda o'z bilimlarini amaliyotga qo'llash ko'nikmasi rivojlanadi.

Biofizika fanini o'qitishning umumiy qonuniyatlari quyidagilardan iborat:

o'quv materiallari va boshqa bilim sohalaridagi amaliy jihatlarining tarkibi, masalan, texnologik yo'naltirilgan tarkib (tibbiy texnika, jarayonlar va hodisalarning kompyuter texnikasi nuqtai nazaridan ishlash printsiplari, biosistemalarni matematik modellashtirish va boshqalar);

talabalar va o'qituvchi o'rtasida, ham auditoriyada, ham auditoriyadan tashqarida teng hamkorlik;

o'quv jarayonida orqada qolayotgan va ularga biofizika fani bo'yicha qiyin savollarni o'rganishda yordam beradigan talabalarga nisbatan bag'rikenglikning namoyon bo'lishi;

- o'quv mashg'ulotlarida jamoaviy, guruhli va teng darajada individual shakllar;

- talabalarining shaxsiy qiziqishlari va qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan ta'lim faoliyati turlari.

Talabalarga biofizikadan ta'lim-tarbiya berish asosida ularni fanga bo'lgan qiziqishini oshirish, biofizik tafakkuri va mantiqiy fikrlashini o'stirishda yangi

pedagogik va axborot texnologiyalar katta ahamiyat kasb etadi. Shu nuqtayi nazardan, yangi pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish dars samaradorligini oshirishda ijobiy natijalar beradi.

Axborot texnologiyalaridan ta'lim tizimida, ayniqsa, biofizika fanini o'qitishda foydalanish - darsliklarning elektron shakllari, elektron plakatlar, test dasturlarini yaratish, masalalar yechish va hokazo bosqichlardan iborat bo'lib, talabalarning biofizika faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda, hodisa va qonuniyatlarni chuqurroq anglab yetishlarida, masofaviy va mustaqil ta'lim olishlarida muhim ahamiyatga egadir.

Biofizika darslarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish usullari quyidagilardan iborat:

- kompyuterda modellashtirish;
- kompyuter ko'rgazmalari;
- laboratoriya - kompyuter ustaxonasi;
- kompyuter testlari.

Biofizika fanini elektron o'qitish bo'yicha talabalar faoliyati quyidagilarni o'z ichiga oladi:

-o'qitilayotgan fanning elektron o'quv-uslubiy majmuasini ishlab chiqish qobiliyati;

-interfaol, mul'timedia elektron ta'lim resurslarini yaratish va tayyorlaridan foydalanish uchun dasturiy vositalardan foydalana olish qobiliyati;

- tarmoq ta'lim shakllarini (telekommunikatsion loyihalar, viktorinalar, telekonferensiyalar, olimpiada va boshqalar) ishlab chiqish va o'tkazish qobiliyati;

-kompyuter vositalaridan foydalana olish qobiliyati.

Zamonaviy axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish talabalarning o'zini o'zi o'qitish faoliyati motivatsiyasini kuchaytiradi, chunki bu ijodiy samarali pedagogik faoliyatning individual uslubini shakllantirish va rivojlantirishga, pedagogik mahoratni hamda kompetensiya sifatlarini va professional introspeksiya qobiliyatlarini rivojlantirishga, shuningdek, oliy ta'lim muassasalarida biofizika fanini axborot-kommunikatsiya texnologiyalari vositalaridan foydalangan holda o'qitish sifat jihatidan yangi o'quv natijalariga erishishga imkon beradi.

Ta'limni axborotlashtirish masalalarida oliy ta'lim muassasasining markaziy o'rnini ham ta'kidlash kerak, chunki unda quyidagilar mavjud:

- fan va ta'limning asosiy tashkilotlarida axborot kommunikatsiya texnologiyalaridan keng qamrovli qo'llashni ta'minlovchi apparat-dasturiy ta'minot bazasi;

- axborot texnologiyalaridan foydalanuvchilarning turli ijtimoiy guruhlarini keng qamrovli qamrab olishni ta'minlovchi o'z telekommunikatsion infratuzilmasiga ega;

- axborotlashtirish muammolarini nazariy va amaliy yechish;

- fan va ta'limda axborot texnologiyalari muammolari bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlar o'tkazishning moddiy-texnik imkoniyatlari;

- axborot ta'lim muhitini yaratish bo'yicha imkoniyatlari mavjudligi.

Tadqiqot ishining olib borilish jarayonida tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizikani o'qitish metodik tizimi ishlab chiqildi, unda fundamental fizik nazariyalar, qonunlar va ularning kasbiy faoliyatda qo'llanilishi aks etgan. Metodik tizimning asosini tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida biofizika bo'yicha talabalarning kompetensiyasini shakllantirish tashkil qiladi, bunda umumiy didaktik va metodik g'oyalar asosiy o'rinni tutadi.

Metodik tizim qoidalarga quyidagilar kiradi:

1. Tibbiy bilimlar o'quv jarayoniga biofizika fanidan nazariy va amaliy bilimlarning tuzilishi va tashkil etilishi, bilish faoliyati, izlanuvchanlik faoliyati, yordamchi bilimlarning boshqa turlari orqali kiritiladi. Ishlab chiqilgan metodik tizimga muvofiq, biofizika fanini o'qitish quyidagicha tashkil qilinadi:

- o'rganilayotgan fizik kattaliklar va qonuniyatlarning oldingi va keyingi mavzular bilan aloqasi, shuningdek, ushbu mutaxassislikning o'quv rejasida mavjud bo'lgan boshqa fanlar bilan o'zaro aloqasini;

- o'rganilgan bilimlarni tibbiyotda qo'llash va bo'lajak mutaxassis bilan bog'liqligini;

- ushbu bilim sohasidagi zamonaviy yutuqlarni;

- nazariy qismni ko'rib chiqishda tasodifan paydo bo'lgan muammoli savollar, paradoksal vaziyatlar, ziddiyatlar va ularga berilgan javoblarni;

- axborot texnologiyalari va talaba o'rtasida muloqotni tashkil etishni ta'minlovchi teskari aloqani;


- o'rganilayotgan fizik hodisalar modellari va oddiy tadqiqot tajribalari hamda video namoyishlarni;

- yakka tartibda va mustaqil ishlash uchun keng imkoniyatlarni olishi kerak.

2. Metodik bilimlar tizimini shakllantirishning maqsadi talabalarning biofizika fanidan ilmiy tafakkur va dunyoqarashga asoslangan bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlanlantirish.

